

4. Professor Dr Toby Seddon. Cyber-security in the European Region: Anticipatory Governance and Practices. The University of Manchester, UK. 2018.

5. Ki Hong (Steve) Chon. Cybercrime precursors: towards a model of offender resources. The Australian National University. 2016.

6. F. Muxamedjonova. Axborot globallashuvi va yoshlar manaviyati. – Toshkent. To‘plam. Yoshlar axborot psixologik xurujlaridan himoya qilish texnologiyalari: nazariya va amaliyot. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari., 2012,

<https://doi.org/10.34920/uzxdmk/2022/042>

MARKAZIY OSIYO XALQLARI FALSAFASIDA EROTETIK MANTIQ G’OYALARINING SHAKLLANISHI

Xolbabayeva Hilola

O’zMU talabasi

Savol-javob muammosi tafakkur shakli sifatida o'z-o'zidan va ko'pincha falsafaning asosiy rivojlanish yo'llaridan mustaqil ravishda, hattoki o'tmishning buyuk mutafakkirlari asarlarida paydo bo'lgan. Agar bilish jarayonini o'rganishga qat'iy tizimli yondashuvga rioya qilmasa, mavjud fikrlash shakllarini izlashda va tabiiy ravishda ergashishda samimiy bo'lmasa, u paydo bo'lishi mumkin emas edi. Faylasuflar, ehtimol, Arastudan boshlab, fikrlash shakllarini o'rganishda beixtiyor bu muammoga

o'zlarining fikrlashlarida keltirishgan, chunki savol va savol-javob munosabatlari ham kundalik, ham ilmiy tafakkurning (ularning tushunishida) faol qismi bo'lgan. Falsafa tarixida savol va savol-javob munosabatlari muammosi to'liq va nazariy asoslangan shaklga ega bo'lmaganiga yoki maxsus fan sifatidagi yo'nalishga qaramay, fikr-mulohazalar tahlili turlichadir⁷².

Savolning ikki tomoni bor, ularda har doim ikkita mumkin bo'lgan savolni berish mumkin, ammo ularning har biri endi dialektik xususiyatga ega bo'lmaydi. Chunki ular u yoki bu yoki boshqasiga nisbatan aniqlik kiritadi. O'zining tabiatiga ko'ra va bu holatni alohida ta'kidlash kerak, savol har doim o'zining qarama-qarshiligini saqlab qoladi va shunga mos ravishda o'zgarish shakliga ega. Har qanday keyingi savol oldingi savolni aniqlovchi va rivojlantiruvchi rol o'ynaydi. Bu pozitsiyani Sharqning atoqli mutafakkiri Abu Nasr Forobiy ishlab chiqqan bo'lib, u Arastu qarashlarining izchil ifodachisi bo'lgan va haqiqatni bilishda savolning o'rnini haqidagi uning nuqtai nazariga to'la amal qilgan. Ammo u o'z tushunchasini muloqotni rivojlantirishiga ham hissa qo'shdi. Qadimgi mutafakkirlarda, masalan, Aristotelda qoidalar haqida bir qancha bayonotlar borligini, ularning qo'llanilishi savollarni tuzishda xatoliklarga yo'l qo'ymaslik mumkinligini aytib o'tilgan.

Sharq peripatetizmning vujudga kelishi va rivojlanishining ijtimoiy-tarixiy shart-sharoitlari haqida ko'plab ilmiy asarlar mavjud. Sharq

⁷² Батыгин Г.С. Лекции по методологии социологических исследований. 2-е изд. М.: Российский ун-т дружбы народов, 2008.

peripatetizimining tarixi sharq ilm-fani va madaniyatining tarkibiy qismi bo'lib, Markaziy Osiyoda, xususan O'zbekiston hududida uning buyuk targ'ibotchilari yashab ijod etganlar. Ya'ni Forobiy, Ibn Sino, Beruniy va Ar-Roziylar peripatetik ta'limotlarini o'rganish, uning falsafiy mazmunini bilishda ularning boy falsafiy merosi muhim ahamiyat kasb etadi.

Markaziy Osiyo mutafakkirlarining peripatetika maktabi faqat Aristotel ta'limotining sharhidan iborat bo'lmay, bu maktab ilmiy tadqiqotning o'ziga xos yo'nalishlaridan biri hamdir. Fikrimizga dalil sifatida Beruniy va Ibn Sino savol-javoblarida ilgari surilgan falsafa va tabiiy-ilmiy fanlarga oid bilimlarni ko'rsatishimiz mumkin. "Ishorat va tanbeh" asari "Fizika va metafizika" qismining oltinchi ko'rsatmasi "Maqsad va uning asoslari, borliqning iyerarxiyasi haqida" deb nomlanadi. Ibn Sino bu masalalarni tahlil qilishda deduktiv nazariyaga asoslanadi. Bu holat uning Abu Rayhon Beruniy bilan bo'lgan savol-javoblarida ham yaqqol seziladi⁷³. Shu sababdan biz Ibn Sino ontologik qarashlarining mantiqiy asoslarini ushbu savol-javoblarga asoslanib tahlil qilamiz. Beruniy Ibn Sinoga shunday deb savol beradi. Agar, Aristotelning fikricha, falak tashqarisida bo'shliqning yo'qligi aniq va to'g'ri bo'lsa, biz falakni olov kabi latif gavhar deb taxmin qilsak ham, u go'yo chegaralangan bir narsadir. Ammo falakning aylanma harakati tabiiy harakat bo'lmasligi mumkin. Falakning bu aylanma harakati sayyoralarning sharq tomonga bo'lgan tabiiy harakatlari va g'arb tomonga bo'ladigan kecha-kunduzlik araziylar harakatlariga o'xshaydi.

⁷³Қарағ:Б.Тўйчиев.Беруний ва Ибн Сино ёзишмалари.Тошкент.2019.13.бет.

Falakning aylanma harakati araziy emas, chunki aylanma harakatlarning yo‘nalishlarida kelishmaslik yo‘q deyilsa, shu so‘zga lozim keladigan narsalar orasida bo‘yamachilik va safsata zohir bo‘ladi. Chunki bir narsaning o‘zida biri sharq tomonga, yana biri g‘arb tomonga bo‘lgan ikki tabiiy harakatni o‘ylash mumkin emas. Chunki g‘arbgacha tomon harakatni sharqqa tomon harakatning ziddi deb aytilmaydi⁷⁴.

Peripatetikani falsafiy maktab sifatida umumiy tarzda quyidagi ikki nuqtai nazardan o‘rganish lozim, ya’ni Aristotel vafotidan keyingi davrda Qadimgi Yunonistonda uning shogirdlari tomonidan tarixiy-tanqidiy rivojlantirish hamda Sharq va Markaziy Osiyo peripatetika falsafiy ta’limotining o‘ziga xos jihatlari. Bunday yondashuv peripatetika maktabi va uning vakillarini tizimli o‘rganish imkonini beradi. Ayni paytda peripatetiklarning ba’zi xorijiy manbalarda qayd etilganidek, shunchaki Aristotel ta’limotining sharhi yoxud uning u yoki bu mutafakkir tomonidan izohlanishi sifatida tahlil qilish to‘g‘ri emas. Ya’ni Sharq peripatetiklarining ilmiy-falsafiy g‘oyalarini ilm-fanda o‘chmas iz qoldirgan mustaqil ilmiy-falsafiy bilimlar tizimi sifatida e’tirof etish lozim. Mazkur tushunchaga falsafiy ta’limot sifatida Markaziy Osiyo mutafakkirlari al-Xorazmiy, Forobiy, Beruniy, ibn Sinolar tomonidan rivojlantirilishi – uning o‘sha davr ilm-fan rivojiga qo‘shgan hissasiga munosabatlar xilma-xildir. Ba’zi manbalarda uning ijobiy roli e’tirof etilsa, boshqa bir manbalarda esa uning Sharq va G‘arb fani rivojlanishida roli birmuncha yuzaki baholanadi.

⁷⁴ Қаранг:Б. Тўйчиев. Беруний ва Ибн Сино ёзишмалари.Тошкент.2019. 35-бет.

Said Husayn Nasrning ta'kidlashicha, peripatetika falsafasi tarixida Beruniy va Ibn Sino yozishmalari alohida o'rin tutadi. Ibn Sino o'zining tabiiy falsafasiga oid ta'limotida Aristotelning "Osmon haqida" va "Fizika" asarlarida ilgari surilgan ontologik qarashlarni qo'llab – quvatlaydi.

Said Husayn Nasrning yozishicha⁷⁵, Beruniy peripatetik falsafasining o'ziga xosligi unda "murakkab" va "hafli" muammolar ko'tarilganligida deb hisoblaydi. Beruniy Stagiritning kosmonogik qarashlariga tanqidiy munosabat bildiradi.

Ayni paytda Markaziy Osiyo ilk o'rta asrlar falsafasida Beruniy boshlik aksil peripatetik qarashlar ham mavjud bo'lgan. Bu borada mashhur olim va tabib Abu Bakr Muhammad ibn Zarakariyo ar-Roziyning fikrlariga e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir. Beruniy peripatetika falsafasini umuman inkor etmagan holda uning ayrim konseptual masalalariga, xususan jismning cheksiz bo'lishi va boshqa bir ontologik masalalarga qarshi chiqadi. Uning fikricha, olamning abadiyligini tan olish uning mavjudligining sababini inkor etishga olib keladi. Bu esa islom va xristian dinlari ta'limotiga ziddir⁷⁶.

Bu masala Beruniy va Ibn Sino yozishmalarida savol va javob kompleksi asosida muhokama qilinadi. Beruniy peripatetiklarning olamning abadiyligi va yaratilmaganligi haqidagi qarashlarini olam vaqtda o'zining ibtidosiga ega emasligi haqidagi fikr esa olamning ijodkori konsepsiyasini

⁷⁵ Каранг: Саид Хусайин Наср.Беруний, Ибн Сино,Ас-Сафо, Сухравардий ва бошқа Марказий Осиё мутафаккирлари ижодига бағишланган тадқиқотлар муаллифи

⁷⁶ : Саид ХусейнНаср. Бируни – Авиценна, в диалоге века. Два гения в возрасте 24 и 17 лет полемизируют по вопросам натурфилософии// Журнал Курьер.1974. – С.39.

inkor etadi, deb hisoblaydi. Beruniy Ibn Sinoga yuborgan savollarida, shuningdek o‘zining “Geodeziya” asarida olamni yaratilganligi haqidagi konsepsiyasini yoqlab, ilmiy va teologik argumentlarda keltiradi.

Markaziy Osiyoda peripatetizmning rivojlanishi o‘ziga xos xususiyatlardan biri Aristotelning ilmiy – falsafiy qarashlarini rivojlantirish quyidagi ikki yo‘nalishda amalga oshirilganligidadir. Birinchi yo‘nalish Aristotel qarashlarini asos sifatida qabul qilgan hold ilmiy bilimning yangi metodlarini ishlab chiqish va uni ilmiy bilish jarayonida qo‘llash asosida yangi nazariyalar, ta’limotlar va farazlar yaratilishi bilan bog‘liq bo‘lsa.

Ikkinchi yo‘nalish esa Aristotelning olam haqidagi qarashlarining ba’zi jihatlarini tanqidiy o‘rganish asosida rivojlanganligini etirof etish mumkin. Forobiyning “Ikkinchi muallim”, degan nom bilan shuhrat qozonish – Aristotel falsafiy va ilmiy merosining Sharq mutafakkirlari tafakkur tarziga va ijodiga nihoyatda katta ta’sir ko‘rsatganligidan dalolat beradi. Forobiy peripatetizmiga uning quyidagi fikrlarini misol tariqasda keltiramiz: “G‘arb sabablari juda chuqur bo‘lgan va shuning uchun ham o‘rganilmagan hodisalarning mavjudligini inkor etib bo‘lmaydi. Insonlar bunday voqealarni tasodifan sodir bo‘lgan noma’lum, lekin mavjudlik ehtimoli bor hodisa, deb biladilar. Masalan, quyosh nuri yer ustiga taralsa, undan ko‘p bug‘ ko‘tariladi, bulutlar vujudga keladi va havo buziladi, yomg‘ir yog‘adi, yirik mavjudotlar chirib parchalanadi, ayrim jonzodlar o‘ladi”.

Aristotelning “fizika asarida tahlil etilgan tabiat, vaqt, fazo, o‘lchovlar, makon, olamning yaratuvchisi, olamning cheksizligi, yorug‘lik va uning

inson tomonidan hissiy idrok etish kabilar Beruniy va Ibn Sino savol javoblarida asosiy bahs mavzusi bo'ldi. Ayniqsa olamning markazi masalasi hozirgi zamon kosmologiya fani uchun ham ahamiyatli hisoblanib, Beruniy ilk fan tarixida geliotsentrizm nazariyasiga doir o'z qarashlarini o'rtaga tashladi va bu o'z davri fani uchun nafaqat yangilik, balki ma'lum ma'noda ilmiy jasorat ham edi. Mazkur savol javoblar va ulardagi ko'tarilgan mavzular hozirgi davr uchun ham nihoyatda ahamiyatlidir. Ayniqsa ajdodlarimizning, olamlarning ko'pligi tabiatdagi predmetlar, jismlardagi tub o'zgarishlarning miqdor va sifat dialektikasi kesimini ko'rish mumkin. Bu kabi kuplab ilmiy faraz va kashfiyotlar bu olimlar o'rtasidagi savol – javob yozishlarining yana chuqurroq tadqiq qilishni toqozo qiladi. Negaki bu manbalardagi nazariyalar ilm-fanimiz uchun yangi kashfiyotlarga olib kelishi va biz talabalarni yanada ko'proq yangiliklar tomon ilhomlashtirishi shubhasiz.

Shunday qilib, yuqoridagi muhtasar tahlil shuni ko'rsatadiki, Beruniy va Ibn Sino yozishmalarining ilmiy-falsafiy g'oyalari hali mukammal bir tizimga solinib, izchil va tugallangan tarzda tadqiq qilingan deb bo'lmaydi. Ya'ni Markaziy Osiyo ilmiy – falsafiy, diniy – irfoniy tafakkurida sezilarli iz qoldigan jahonga mashhur allomalarning buyuk nashriyotlarini o'rganish biz bo'lajak falsafa mutahassisligini egallash ostonasida turgan talabalar uchun zaruriyatdir.